

**X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY  
NATIJALARI**

**Foyda.** Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra 2022 yilning yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 2729,5 mlrd. so‘m miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi. 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 105,4 mlrd. so‘mga ko‘paygan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni tashkil qildi.

**2022 yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari**

|  | <i>Foyda, zarar (+-),<br/>mlrd. so‘m</i> | <i>2021 yilning<br/>yanvar-mayga<br/>nisbatan % da</i> |
|--|--|--|
| <b>Jami</b>  | <b>2729,5</b>                            | <b>104,0</b>   |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi   | -  | -  |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash   | -  | -  |
| Ishlab chiqaradigan sanoat   | 2623,3                                   | 112,0  |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash                              | 136,7                                    | 48,4   |
| Suv bilan ta‘minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish | -7,5                                     | -  |
| Qurilish   | 0,8                                      | 38,0   |
| Savdo  | 1,7                                      | 155,1  |
| Tashish va saqlash   | -26,3                                    | -  |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar  | -  | -  |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar  | 0,6                                      | 41,8   |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar                                      | 0,2                                      | 126,4  |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat   | -  | -  |

2022 yilning yanvar-may oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘shishi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (136,0 mlrd. so‘mga), “O‘z kimyosanoat” AJ (1,8 mlrd. so‘m), “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati (45,7 mlrd. so‘m), “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari” AJ (1,6 mlrd. so‘m)ga to‘g‘ri keladi. Foydaning pasayishi “O‘z paxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati AJ (194,5 mlrd. so‘m) hisobiga to‘g‘ri keldi.

2022 yilning yanvar-may oylari yakunlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining foydasi 2811,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,7% tashkil etadi.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Nukus shahriga 2536,4 mlrd. so‘m (jami foydaning 92,9 %), Taxiatoshga 136,0 mlrd. so‘m (5,0 %), Qo‘ng‘irotda 48,0 mlrd. so‘m (1,8 %), Nukus tumaniga 1,6 mlrd. so‘m (0,1 %) va Ellikqal‘aga 7,1 mlrd. so‘mdan 0,3 %) to‘g‘ri keladi.


Shuningdek, Shumanay tumanida yirik tijorat korxonalari mavjud emasligi sababli, ushbu tuman bo‘yicha foyda (zarar) miqdori keltirilmagan.

### 2022 yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

|                                      | <i>Foyda, zarar (+-),<br/>mlrd. so‘m</i> | <i>2021 yilning<br/>yanvar-mayiga<br/>nisbatan % da</i> |
|--------------------------------------|--|---|
| <b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b> | <b>2729,5</b>                            | <b>104,0</b>  |
| Nukus sh.                            | 2536,4                                   | 109,5   |
| <i>tumanlar:</i>                     |  |   |
| Amudaryo                             | 0,8                                      | 140,1   |
| Beruniy                              | 0,2                                      | 42,2  |
| Qorao‘zak                            | 2,8                                      | 153,7   |
| Kegeyli                              | 0,9                                      | 140,6   |
| Qo‘ng‘irotda                         | 48,0                                     | 4,7 m.  |
| Qonliqo‘l                            | 0,8                                      | 62,9  |
| Mo‘ynoq                              |  |   |
| Nukus                                | 1,6                                      | 40,5  |
| Taxiatosh                            | 136,0                                    | 48,6  |
| Taxtako‘pir                          | -6,4                                     | -   |
| To‘rtko‘l                            | 1,2                                      | 102,4   |
| Xo‘jayli                             | -1,1                                     | -   |
| Chimboy                              | 1,2                                      | 66,3  |
| Ellikqal‘a                           | 7,1                                      | 110,2   |

**Zararlar.** 2022 yilning yanvar-may oylarida 10 ta korxonalar va tashkilotlar tomonidan 81849,6 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘yilgan. Zararning asosiy qismi “O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat vazirligi” 300,5 mln. so‘m, “Uzbekistan Airports” AJ 72000 mln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalarini uyushmasi 1133,2 mln. so‘m va boshqalar 8375,0 mln. so‘m hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**2022 yilning yanvar-mayida zarar ko‘rgan  
korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**  
(jami ga nisbatan % da)




2022 yil yanvar-may oylarida 10 ta korxonalar o‘z faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo‘lib, ko‘rilgan zararining umumiy miqdori 81849,6 mln. so‘mni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p zarar miqdori. Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 7533,5 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 9,2 foiz), Elektr gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 804,7 mln. so‘m (korxonalar soni 2 ta, 1,0 foiz), Ulgurji va chakana savdo 190,2 mln. so‘m (korxonalar soni 2 ta, 0,2 foiz), Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati 72000 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 88,0 foiz), Professional, ilmiy va texnik faoliyat 25,0 mln. so‘m (zarar ko‘rgan korxonalar soni 1 ta, Respublika bo‘yicha jami zarar miqdorining 0,0 foizi) hissalariga to‘g‘ri keldi.

## 2022 yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

|  | Korxonalar soni | Zarar so‘mmasi |                      |
|--|-----------------|----------------|----------------------|
|  |                 | mln. so‘m      | jamiga nisbatan % da |
| <b>Jami</b>  | <b>10</b>       | <b>81849,6</b> | <b>100,0</b>         |
| Savdo  | 2               | 190,2          | 0,2                  |
| Ishlab chiqaradigan sanoat   | 2               | 1139,6         | 1,4                  |
| Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish | 1               | 7533,5         | 9,2                  |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash                              | 2               | 804,7          | 1,0                  |
| Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati   | 1               | 72000,0        | 88,0                 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat   | 1               | 25,0           | -                    |
| Qurilish   | 1               | 156,6          | 0,2                  |

## 2022 yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari (jamiga nisbatan % da)



**2022 yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida  
zarar kurgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

|                                      | <i>Korxonalar soni</i> | <i>Zarar ko‘rgan korxonalarining ulushi, % da</i> | <i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i> |
|--------------------------------------|------------------------|---|----------------------------------|
| <b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b> | <b>10</b>              | <b>100,0</b>                                      | <b>81849,6</b>                   |
| Nukus sh.                            | 5                      | 50,0  | 72515,6                          |
| Taxiatosh                            | 1                      | 10,0  | 504,1                            |
| Taxtako‘pir                          | 2                      | 20,0  | 7690,2                           |
| Xo‘jayli                             | 1                      | 10,0  | 1133,2                           |
| Ellikqal‘a                           | 1                      | 10,0  | 6,5                              |

**Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorlik holati<sup>1</sup>**

2022 yilning 1 iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 2064,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 25,9 mlrd. so‘m yoki jami qarzdorlikning 1,2 foizini tashkil etgan. Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2021 yilning 1 iyuniga nisbatan 44,4 % ni tashkil etib, 32,4 mlrd. so‘mga kamaygan.

**2022 yil 1 iyun holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)**

| <i>Debitor qarzdorlik jami</i>  | <i>%</i> |
|---|----------|
| “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ;  | 47,2     |
| “O‘zpxatasanoat” AJ   | 0,6      |
| “O‘zdonmahsulot” AJ   | 2,8      |
| “O‘zkimyosanoat” AJ   | 1,5      |
| ”Hududiy elektr tarmoqlari” AJ  | 2,1      |
| “O‘zbekneftegaz” AJ   | 0,2      |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ   | 1,0      |
| O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi            | 0,03     |
| MCHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo‘shma korxonasi                         | 23,9     |
| “Ustyurt qidiruv-burgulash boshqarmasi” MCHJ                                    | 2,1      |
| “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi | 0,1      |
| “Lanextrakt” MCHJ   | 1,0      |
| Boshqalar   | 17,5     |

<sup>1</sup>Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

2022 yil 1 iyun holatiga jami debitor qarzdorliklar hajmi 2064,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi, debitor qarzdorliklarning asosiy qismini “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ 974,0 mlrd. so‘m (47,2 foiz), “O‘zpxatasanoat” AJ 12,9 mlrd. so‘m (0,6 foiz), “O‘zdonmahsulot” AJ 57,6 mlrd. so‘m (2,8 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 42,9 mlrd. so‘m (2,1 foiz), “O‘zkimyosanoat” AJ 32,0 mlrd. so‘m (1,5 foiz), O‘zbekneftgaz” AJ 4,6 mlrd. so‘m (0,2 foiz), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 20,3 mlrd. so‘m (1,0 foiz), Mchj "Uz-Kor Gas Chemical" qo'shma korxonasi 493,6 mlrd. so‘m (23,9 foiz) “Ustyurt Qidiruv- Burgulash Boshqarmasi” Mchj 43,0 mlrd. so‘m (2,1 foiz) “Zarubejneftegaz-Gpd Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi 2,7 mlrd. so‘m (0,1 foiz) "Lanextrakt" Mchj shaklidagi qo'shma korxonasi 19,9 mlrd. so‘m (1,0 foiz) O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi 0,7 mlrd. so‘m (0,03 foiz) hamda boshqalar 360,7 mlrd. so‘m (17,5 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.

### 2022 yil 1 iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

|                            | Jami,<br>mlrd.<br>so‘m | shundan:                             |  |                        | Muddati<br>o‘tgan<br>qarzdor-<br>likning<br>ulushi,<br>% da |
|----------------------------|------------------------|--------------------------------------|--|------------------------|---|
|                            |                        | xaridor<br>va<br>buyurtma-<br>chilar | yetkazib<br>beruvchilarga<br>va pudratchi-<br>larga berilgan<br>avanslar | ichki<br>idora-<br>viy |   |
| <b>Jami</b>                | <b>25,9</b>            | <b>16,1</b>                          | <b>0,1</b>   | <b>1,1</b>             | <b>100,0</b>  |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 25,0                   | 15,2                                 | 0,1  | 1,1                    | 96,5  |
| Tashish va saqlash         | 0,7                    | 0,7                                  | -  | -                      | 2,7   |
| Qurilish                   | 0,2                    | 0,2                                  | -  | -                      | 0,8   |

### 2022 yil 1 iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

|  | Jami,<br>mlrd.<br>so‘m | shundan:   |  |   | Muddati<br>o‘tgan<br>qarzdor-<br>likning<br>ulushi,<br>% da |
|--|------------------------|--|--|---|---|
|  |                        | yetkazib<br>beruvchilar<br>va<br>pudratchi-<br>larga | mehnatga<br>haq<br>to‘lovlar<br>bo‘yicha<br>qarz | Byudjetga davlat<br>maqsadli<br>jamg‘armalariga<br>to‘lovlar bo‘yicha<br>qarz |   |
| <b>Jami</b>                                | <b>5,2</b>             | <b>2,6</b>   | <b>2,6</b>                                       | <b>-</b>  | <b>100,0</b>  |
| Ishlab chiqaradigan sanoat                 | 2,8                    | 1,9  | 0,9  | -   | 53,9  |
| Tashish va saqlash                         | 0,1                    | 0,1  | -  | -   | 1,9   |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 2,3                    | 0,6  | 1,7  | -   | 44,2  |

**2022 yilning 1 iyun holatiga vazirlik va idoralarning  
kreditor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)**

| <i>Kreditor qarzdorlik, jami</i>  | <b>%</b> |
|---|----------|
| “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ;  | 2,6      |
| “O‘zpaxtasanoat” AJ;  | 0,1      |
| “O‘zdonmahsulot” AJ   | 1,4      |
| “O‘zkimyosanoat” AJ;  | 0,9      |
| O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalarini uyushmasi    | 1,6      |
| “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ  | 5,1      |
| “O‘zbekneftegaz” AJ   | 0,7      |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ   | 2,2      |
| “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi | 71,2     |
| “Ustyurt qidiruv-burgulash boshqarmasi” MCHJ                                    | 1,1      |
| “Lanextrakt” MCHJ   | 1,0      |
| MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo‘shma korxonasi                         | 3,0      |
| Boshqalar   | 9,1      |

2022 yilning 1 iyun holatiga jami kreditor qarzdorliklar hajmi -2873.9 mlrd. so‘mni tashkil etdi, kreditor qarzdorliklarning asosiy qismi “Issiqlik elektr stansiyalari”AJ -74,1 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 2,6 %), “O‘zpaxtasanoat” AJ -3,2 mlrd. so‘m (0,1 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ -147,1 mlrd. so‘m (5,1 %), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ -63,2 mlrd. so‘m (2,2 %), “O‘zdonmahsulot” AJ -39,2 mlrd. so‘m 1,4 %), “O‘zkimyosanoat” AJ -25,0 mlrd. so‘m (0,9%), “O‘zbekneftegaz” AJ -20,6 mlrd. so‘m (0,7 %), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalarini uyushmasi -45,7 mlrd. so‘m (1,6 %) “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi -2046,7 mlrd. so‘m (71,2 %) MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo‘shma korxonasi -84,8 mlrd. so‘m (3,0 %),“Ustyurt qidiruv-burgulash boshqarmasi” MCHJ -31,8 mlrd. so‘m (1,1 %), Lanextrakt” MCHJ -30,0 mlrd. so‘m (0,1%) hamda boshqalar -261,5 mlrd. so‘m (9,1 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.